

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'li

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrilloevna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR

PROFILAKTIKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI 213-222

Шадиева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО

ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА 223-233

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI:

NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA")..... 234-241

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdorovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR

VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL

VA TEVARAK-ATROF 242-246

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT

HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV

HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI 247-251

Temple Chimunya Odimegwa

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS

IN CONCRETE 252-265

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING

HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH

SSENARIYLARI 266-271

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING

IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI 272-277

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK

ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI 278-283

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY

FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI..... 284-289

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK

FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI..... 290-294

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA

UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH 295-300

Received: 16 December 2025

Accepted: 1 January 2026

Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

RETROSPECTIVE ANALYSIS OF OFFENSES PREVENTION AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Nurmatov Jasur

Independent researcher of the Academy of the
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article provides a retrospective analysis of the historical development of crime prevention among students of higher educational institutions. The evolution from ancient times to the conditions of New Uzbekistan has been studied. The stages of combating (punishing) the consequences of offenses to their prevention and modern reforms are described. Based on the research results, a number of proposals and recommendations have been developed.

Keywords: higher education institution, student, offense, retrospective analysis, Avesta, punishment, tutoring institute, prevention inspector.

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI

Nurmatov Jasur

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: jnurmatov738@gmail.com

<http://www.orcid.org/0009-0007-2283-0549>

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasining tarixiy rivojlanishi retrospektiv tahlil qilingan. Qadimgi davrlardan to Yangi O'zbekiston sharoitigacha bo'lgan evolyutsiya o'rganilgan. Huquqbuzarliklarning oqibati bilan kurashish (jazolash)dan uning oldini olishga qadar bo'lgan bosqichlar va bugungi zamonaviy islohotlar bayon qilingan. Tadqiqot natijalariga asosan, qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasasi, talaba, huquqbuzarlik, retrospektiv tahlil, Avesto, jazolash, tyutorlik instituti, profilaktika inspektori.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N26.1>

Kirish. Hozirgi globallashuv va ijtimoiy transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish davlatning huquqiy tartibotini mustahkamlash, yoshlarning shaxsiy va kasbiy kamoloti, shuningdek, jamiyat barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Talabalar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar nafaqat alohida shaxsning huquqiy xulq-atvori, balki ta'lim muassasasining ijtimoiy vazifalari va davlatning yoshlar siyosati bilan uzviy bog'liqdir.

Mazkur muammo ma'muriy huquq, huquqbuzarliklar profilaktikasi, kriminologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlari kesishmasida shakllangan kompleks tadqiqot obyekti

hisoblanadi. Shu bois, talabalar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimini takomillashtirish uchun uning tarixiy shakllanishi va evolyutsiyasini retrospektiv tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bizningcha, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasining tarixiy rivojlanishini quyidagi 7 bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Inson jamiyatining shakllanishi va Zardushtiylik dinining paydo bo'lish davri.
2. Qadimgi antik davr.
3. Islom sivilizatsiyasi davri.
4. Temuriylar va Yevropa ma'rifatparvarlik davri.
5. Turkistonda xonliklar davri.
6. Jadidchilik davridan O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar bo'lgan davr.
7. Mustaqil va Yangi O'zbekiston davri.

O'quvchi-talabalar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi g'oyalari insoniyat sivilizatsiyasining ilk bosqichlaridayoq shakllangan bo'lib, ular dastlab diniy-axloqiy me'yorlar orqali ifoda etilgan. Bu borada eng qadimgi yozma manbalardan biri — "Avesto" alohida ahamiyatga ega.

Zero, **Zardushtiylik davrida** bugungi kungi kabi universitetlar bo'lmasa-da, oliy maktablar, akademiyalar va oliy o'quv markazlari mavjud bo'lgan. Bular Avesto davridagi Zardushtiylik o'quv markazlari (mil. avv. X–VIII asrlar) [1; 84-b.], Shumer-Edubba epistolyar maktablari (mil. avv. III–II ming yilliklar), Qadimgi Misr oliy maktablari (mil. avv. II ming yillik), Herbedestān oliy diniy-ilmiy akademiyasi va uning negizida tashkil etilgan Jundishopur akademiyasi hisoblanib, Ahamoniylar hamda Sosoniylar imperiyasi (milodiy III–VII asrlar) davrida ham faoliyat yuritgan.

Bu davrda talabalar **"hērbed"** yoki **"shāgird"**, ya'ni muqaddas bilim egalari deb nomlanib [2], ularning Akademiyada o'rnatilgan qonun-qoidalariga amal qilmaslik (*muqaddas kamarni taqmaslik, ovqatlanish vaqtida gaplashish, darslarni o'zlashtirilmashlik, o'qishda sustkashlik*), axloq-odob me'yorlaridan chetga chiqish (*kun tartibini buzish, yolg'on gapirish, safdoshlarini masxaralash yoki haqorat qilish, muallimga va ota-onaga hurmatsizlik, jinsiy erkinlikni cheklash*), huquqbuzarlik va jinoyatlar (*bezorilik, o'g'irlik, zo'ravonlik, qasddan badanga shikast yetkazish, jangdan qochish, hayvonlarni besabab o'ldirish*)ga qo'l urish kabi barcha xatti-harakatlariga "gunoh" deb qaralib, Zardushtiylikning huquqiy va diniy normalari (*Avesto, Vendidad va Pahlaviy matnlari*)ga asoslangan holda gunohning takrorlanish soni va muddatiga qarab, ogohlantirish, poklanish marosimlari (abdest va duo o'qish), talabani akademiya dan chetlashtirish [3; 230-b.], qamoq, jismoniy jazo (kaltaklash), mutillatsiya – bo'yinbog' bilan bo'g'ish, hibsga olish, qo'l yoki oyoqni kesish, o'lim kabi jazolar qo'llanilgan.

Bunda jazolar qat'iy xarakterga ega bo'lib, jazoning maqsadi – gunohkorning ruhini poklash, kelajakdagi azoblardan (do'zaxdan) qutqarish va atrofdagilarni ogohlikka chaqirish edi.

Mazkur davrning muqaddas "Avesto" kitobida ta'lim-tarbiya, jamoat intizomi, yoshlarni nazorat qilish va jinoyatlarning ma'naviy oqibatlarini haqida mufassal qoidalar bayon etilgan. Zardushtiylikning asosiy tamoyillari — **"Humata"** (ezgu fikr), **"Huxta"** (ezgu so'z), **"Huvarshata"** (ezgu amal) pedagogik va profilaktik falsafaning o'zagi bo'lgan.

Qadimgi antik davrda esa, oliy ta'limning ilk shakllari Yunoniston va Ellinistik davr (Aleksandr Zulqarnayn imperiyasi)da paydo bo'lgan. Bu davrda "oliy ta'lim" zamonaviy universitetlarga o'xshamas, balki falsafiy va ilmiy maktablar (akademiyalar) sifatida shakllangan. Ular asosan Afinalarda joylashgan bo'lib, elit (aristokratlar va boylar) o'g'illari uchun faoliyat yuritgan, qizlar va qullar unda o'qishi taqiqlangan edi. Bu davrdagi eng mashhur oliy ta'lim beruvchi muassasalar – Platon akademiyasi miloddan avvalgi 387-yilda Afinalarda (Akademos bog'ida) Platon tomonidan, Aristotel likeyi miloddan avvalgi 335-yilda Apollon Likeyi ibodatxonasi yaqinida Aristotel tomonidan, Iskandariya muzeyi miloddan avvalgi 290–280-yillarda Misrning Iskandariya shahrida Ptolemey I Soter tomonidan tashkil etilgan.

Ularda talabalarni "shogirdlar" (scholars), "o'quvchilar" (students), "peripatetiklar" (yurib o'qiganlar), "olimlar" (academics) deb atashgan. Barcha zamonlarning olimlari uchun ustoz hisoblangan buyuk yunon faylasufi Arastu 367-yilda Afinada mashhur Aflotun akademiyasiga o'qishga kiradi va 12-yil davomida Aflotunning falsafiy maktabida shogirdlikni o'taydi. Aflotun o'sha davrda shogirdi Arastu bilan faxrlanadi va uni boshqa, dangasaroq shogirdi Ksenokratga taqqoslab, "Bunisini qamchi bilan urib turish, unisining jilovini tortib turish kerak" [4; 5-b.], – deb tartib-intizomni buzuvchi, huquqbuzarlik sodir etuvchi talabalarni qamchi bilan jazolaganligi haqida yozadi.

Bundan tashqari, huquqbuzarlik (*adolatsizlik, ko'chirmachilik, kutubxona qoidalarini buzish, ilmiy bahs qoidalarini buzish, tuhmat, haqorat va boshqalar*) sodir etgan talabalar uchun ogohlantirish, jamoada muhokama qilish orqali tarbiya, akademiyada o'qishdan chetlashtirish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etish, qamchilash kabi jazo choralari qo'llanilgan [5].

Islom sivilizatsiyasi davrida oliy ta'lim muassasalari masjidlar, madrasalar va universitetlar shaklida rivojlangan. Bu davrda Islom dunyosidagi muassasalar dunyodagi eng qadimiylari hisoblanadi, ular ilmiy va diniy ta'limni birlashtirgan.

Xususan, eng birinchi islomiy oliy ta'lim muassasa milodiy 737-yilda Tunisda dastlab masjid sifatida asos solinib, keyinchalik universitetga aylantirilgan **Ez-Zituna universiteti** [6] bo'lib, undan keyin qator oliy ta'lim muassasalari, jumladan, dunyodagi eng qadimiy faoliyat yuritayotgan universitet sifatida Ginness Rekordlari kitobiga kiritilgan Al-Qaraviyin universiteti [7], Al-azhar universiteti [8] hamda Nizomiya madrasalarida [9] talabalar "tolib" (ilm talabgori), "mutafaqqih" (fiqh o'quvchisi) yoki "fazil" (ilm egasi) deb atalgan. Yuqori kursdagi talabalar "danishmand" (bilimdon) nomi bilan yuritilgan. Ular asosan 15–20 yoshdagi erkaklar bo'lib, talabalardan qat'iy tartib (ustozga ehtirom, namoz o'qish, ota-onaga itoat) talab qilingan.

Tartib-intizomni buzgan talabaga qilmishning og'irligiga qarab, jismoniy jazo (qamchi, kaltak), ommaviy tahqirlash va madrasada o'qishdan chetlashtirishgacha bo'lgan jazolar qo'llanilgan. O'rta asr islom madrasalari va akademiyalarida jazolar shariat qonun-qoidalariga asoslanganligi sababli og'ir jinoyatlar (o'g'irlik, zo'ravonlik, tuhmat, yolg'on guvohlik berish, nomusga teshgish) uchun qamchi, qo'l kesish yoki o'lim jazosi ham qo'llanilgan. Ta'limda jismoniy jazo (korporal jazo) faqat zarur hollarda tarbiyalash usuli sifatida ustozlar tomonidan qo'llanilgan [10].

Bundan tashqari, sodir etilgan har bir huquqbuzarlikka gunoh sifatida qaralib, gunohlar uchun poklanish marosimlari yoki ma'lum miqdordagi mol-mulkni musodara qilish tarzidagi ta'sir choralari ko'rilgan. Diniy tarbiya orqali profilaktika amalga oshirilgan [11].

Temuriylar va Yevropa ma'rifatparvarlik davri jahon ta'limi tarixida muhim o'zgarishlarning guvohi bo'ldi. Bu davrning bir tomonida Temuriylar imperiyasi (Markaziy Osiyodagi turkiy-mongol davlati, 1405–1507-yillar) ilmiy-ma'rifiy rivojlanishning markazi sifatida madrasalar orqali ilm-fanni rivojlantirdi, ikkinchi tomonida esa Yevropa Renessans (XV–XVI asrlar) va ma'rifatparvarlik (XVII–XVIII asrlar) davrida universitetlar orqali gumanistik ilmiy qarashlarni tarqatdi.

Ushbu o'rinda biz ikki hududning oliy ta'lim muassasalari, talabalar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar turlari va jazo choralarining o'ziga xos jihatlarini taqqoslaymiz. Tahlil ilmiy manbalarga asoslangan bo'lib, davrning ijtimoiy-madaniy kontekstida jinoyatchilik profilaktikasi va tarbiyaviy tizimning evolyutsiyasini ko'rsatadi. Temuriylar davrida ta'lim diniy-ilmiy birlikka asoslangan bo'lsa, Yevropada sekulyarlashuv va gumanizm ustun bo'ldi, bu esa huquqbuzarliklarning turlari va jazo mexanizmlarida ham aks etdi.

Temuriylar imperiyasi (asoschisi Temur, 1336–1405) davrida oliy ta'lim madrasalar (islomiy oliy maktablar) orqali amalga oshirilgan, ular diniy va ilmiy ta'limni birlashtirgan. Davrning eng mashhur muassasasi – Ulug'bek madrasasi (Samarqand, 1417–1420-yillarda qurilgan), Ulug'bek (Temurning nabirasi, 1394–1449) tomonidan tashkil etilgan [12; 156-164-b.]. Shuningdek, Buxoro Ulug'bek madrasasi (1417–1418) va Gijduvon madrasasi (1433) ham faoliyat yuritgan, ularda 100–150 nafar talabalar o'qigan. Bu muassasalar islohotlar natijasida ilmiy ta'limni kuchaytirgan, masalan, Ulug'bek madrasasida astronomik observatoriya ham bor edi. Talabalar “tolib” (ilm talabgori) yoki “shohgird” (ustoz shogirdi) deb nomlangan.

Binobarin, bu davrda talabalar huquqbuzarliklari asosan diniy va tartib-intizomga oid bo'lgan. Masalan, ateizm (dinsizlik), madrasada o'rnatilgan tartibni buzish (ustozga hurmatsizlik), o'g'irlik, zo'ravonlik, tuhmat, yolg'on guvohlik berish va bezorilik. Bu huquqbuzarliklar ijtimoiy tengsizlik va diniy fanatizmdan kelib chiqqan, masalan, madrasalarda ilmiy nizolar diniy gunoh sifatida ko'rilgan. Ularga jazo choralari shariatga asoslangan bo'lib, qat'iy xarakterga ega, ya'ni yengil holatlarda ommaviy tanbeh yoki poklanish marosimlari, o'rtacha og'irlikdagi qilmishlar uchun qamchi bilan darra urish yoki madrasada o'qishdan chetlashtirish, og'ir jinoyatlar (ateizm, o'g'irlik) uchun qo'l kesish yoki o'lim jazosi qo'llanilgan [13; 256-264-b.]. Bu choralar nafaqat jazo, balki ruhiy tarbiya sifatida ham ko'rilgan, chunki gunohlar Ahriman (yomonlik) ta'siri sifatida baholangan. Huquqbuzarliklar profilaktikasi diniy tarbiya va ustoz nazorati orqali amalga oshirilgan.

Yevropa Renessans va ma'rifatparvarlik davrida oliy ta'lim universitetlar orqali rivojlangan, ular cherkov va shahar hokimiyati nazoratida bo'lgan. Jumladan, 1088-yilda Italiyada tashkil etilgan Bolonya universiteti Yevropadagi eng qadimiy universitet hisoblanadi [14; 18-b.]. Undan keyin Oksford universiteti (Angliya), Parij universiteti (Fransiya), Kembrij universiteti (Angliya), Salamanka universiteti (Ispaniya), Geydelberg universiteti (Germaniya) va Krakov universiteti (Polsha) tashkil topgan bo'lib, ularda talabalar “scholar” (olim) yoki “student” (o'quvchi) deb atalgan.

Bu davrda shahar va universitet o'rtasidagi nizolarda talabalar faol bo'lib, ular tomonidan zo'ravonlik (talabalar guruhlar hujumlari), o'g'irlik, ichkilik va jamoat tartibini buzish kabi huquqbuzarliklar sodir etilgan.

Xususan, Oksford va Bolonyada talabalar shahar aholisi bilan tez-tez nizoli to'qnashuvga duch kelgan, bu esa ommaviy zo'ravonlikka olib kelgan [15]. Mazkur nizoli to'qnashuvlarning asosiy sababi shaharlarning urbanizatsiyalashuvi natijasida joriy etilgan yangi qonunlarga

universitet talabalarining ko'nika olmaganligi bo'lgan edi. Bunday ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etgan talabalarga qat'iy jazo choralari belgilangan bo'lib, yetkazilgan zarar va ishtirokchilikning darajasidan kelib chiqqan holda ularga ogohlantirish, ommaviy tahqirlash, qamchi bilan urish, hibsga olish hamda jarima jazolari va hatto o'ta og'ir jinoyatlar uchun o'lim jazosi (boshini kesish, kuydirish) ham tayinlangan [16; 389-407-b.].

Mazkur davrda gumanistik islohotlar (Ch.Bekkariyaning "Jinoyatlar va jazolar haqida" esse, 1764) jazolarni birmuncha yengillashtirdi, ammo amaliyotda qat'iy tizim baribir saqlanib qoldi. Talabalar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi sodir etilgan salbiy holatlar yuzasidan tanqidiy muhokama o'tkazish va universitet kodekslari orqali amalga oshirilgan. Universitetda tartib-intizomga amal qilmagan va huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan talabalar "bejauni" (sarg'ish tumshuq) [17] deb nomlangan hamda darhol o'qishdan chetlashtirilgan.

Xuddi shuningdek, XIX asr boshlarida hozirgi O'zbekiston hududida zamonaviy ma'nodagi universitetlar mavjud bo'lmagan. Oliy ta'lim vazifasini madrasalar bajargan bo'lib, ular **Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida** faoliyat yuritgan. Bu davrda huquqbuzarliklar profilaktikasi diniy-axloqiy normalar, shariat qoidolari, ustoz-shogird munosabatlari va jamoatchilik nazorati orqali amalga oshirilgan. Madrasalarda talabalar (tolibi ilmlar)ning xulq-atvori maxsus nizomlar bilan emas, balki odob-axloq qoidolari, islomiy ta'limot normalari hamda jamoatchilik nazorati yordamida idora qilingan [18; 166-192-b.].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro amirligida 1800 yillarda 180 ta madrasa (shundan 103 tasi Buxoro shahrida) va 15000 ga yaqin talaba tahsil olgan hamda ularda amalga oshirilgan profilaktika tizimi feodal jamiyat munosabatlariga mos bo'lib, u talabalar huquqlarini himoya qilish va huquqiy ongini shakllantirishga emas, balki amaldagi ijtimoiy-siyosiy tuzumni saqlab qolish, markazlashtirilgan boshqaruv va diniy-axloqiy nazoratni ta'minlashga qaratilgan. Boshqa hududlarda (Xiva – 25, Toshkent – 10, Samarqand – 50, Qo'qon – 118 madrasa) ham shunday tizim mavjud bo'lgan [19; 4-5-b.]. Shu sababli, mazkur davrda huquqbuzarliklar profilaktikasi huquqiy institut emas, balki axloqiy-diniy va qat'iy jazoga asoslangan nazorat tizimi sifatida namoyon bo'lgan desak, hech mubolag'a bo'lmaydi.

Jadidlar harakati (XIX asr oxiri – XX asr boshi) madrasalarni modernizatsiya qilishga harakat qilgan va yangi usuldagi 92 ta maktab tashkil etilgan, e'tiborga molik jihati shundaki, huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid islohotlarga u qadar ehtiyoj sezilmagan, chunki diniy normalarga itoat kuchli edi [19; 7-b.].

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o'lkasining Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shilishi natijasida ta'lim sohasida tub o'zgarishlar yuz berdi. An'anaviy madrasalar bilan bir qatorda rus-tuzem maktablari, o'qituvchilar seminariyalari hamda keyinchalik oliy ta'limga yaqinlashgan muassasalar tashkil etildi. Mazkur muassasalarda talabalar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi ma'muriy-intizomiy mexanizmlar orqali amalga oshirilib, ta'lim jarayoni qat'iy nazorat ostiga olindi. Bu davrda profilaktika jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklarning oldini olishdan ko'ra, mustamlakachilik tartibini saqlash va davlat xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

1917-yilgi inqilobdan so'ng Turkiston hududida sovet ta'lim tizimi shakllantirildi. Turkiston xalq universiteti (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) va keyinchalik tashkil etilgan oliy o'quv yurtlarida huquqbuzarliklar profilaktikasi mafkuraviy tarbiya bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirildi. Kommunistik partiya va komsomol tashkilotlari talabalarning xulq-atvorini nazorat qilishning asosiy subyektiga aylandi. Talabalar o'rtasida

huquqbuzarliklar profilaktikasi mustaqil huquqiy institut sifatida emas, balki siyosiy-ideologik ta'sir vositasi sifatida namoyon bo'ldi [20; 3-11-b.].

Shundan so'ng, 1930–1950-yillarda sovet davlatining markazlashgan siyosati natijasida oliy ta'lim muassasalarida profilaktika yanada qat'iylashdi. Talabalar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish partiya-komsomol nazorati, intizomiy jazolar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik orqali amalga oshirildi. Bu davrda profilaktika asosan repressiv xarakter kasb etib, huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishdan ko'ra, "huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori" deb baholangan shaxslarni aniqlash va ularni jamiyatdan ajratishga qaratilgan edi [21; 302-303-b.].

XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa 1960–1980 yillarda, oliy ta'lim muassasalarida profilaktika siyosati ma'lum darajada liberallashti. Kuratorlik instituti, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, talabalar jamoat birlashmasi orqali tarbiyaviy profilaktika kuchaytirildi. Biroq, shu bilan birga, mafkuraviy nazorat va intizomiy choralar saqlanib qolgan bo'lib, profilaktika to'liq gumanistik va huquqiy asosga o'ta olmadi.

1985–1991-yillarda amalga oshirilgan qayta qurish siyosati natijasida mafkuraviy nazorat zaiflashdi, biroq uning o'rnini bosuvchi mukammal huquqiy profilaktika tizimi shakllantirilmadi. Bu holat oliy ta'lim muassasalarida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida muayyan bo'shliqlarni yuzaga keltirib, mustaqil O'zbekiston sharoitida yangi, huquqiy va kompleks profilaktika konsepsiyasini ishlab chiqish zaruratini taqozo etdi.

Muhokama. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk yillarida, iqtisodiy beqarorlik va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida Birinchi Prezident I.A.Karimov sa'y-harakatlari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasining poydevori shakllantirildi.

Bu davrda talabalar o'rtasida jinoyatchilik ko'rsatkichlari ortdi. Masalan, oliy ta'lim muassasalari talabalari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 1991-yilda 97 ta holatdan 1992-yilda 115 tagacha ko'paydi, kasb-hunar o'quv yurtlari talabalari orasida esa 106 dan 129 tagacha oshdi [22; 79-b.]. Bu o'sishning asosiy sababi iqtisodiy qiyinchiliklar va uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi bo'ldi. Profilaktika tizimining shakllanishi 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati asoslari to'g'risida"gi Qonun [23] bilan boshlandi, u 2016-yilda yangilandi va "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunga aylandi. Bu hujjatda talabalarning huquqlarini himoya qilish, ota-onalar, mahalla va ta'lim muassasalarining vazifalari belgilab qo'yildi.

Sovet davrida amal qilgan mafkuraviy va repressiv profilaktika amaliyoti inqirozga uchrab, uning o'rnini bosuvchi demokratik va huquqiy mexanizmlarni shakllantirish ustida ish olib borildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [24] va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" [25] oliy ta'lim muassasalarining nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy funksiyasini ham qonuniy jihatdan mustahkamladi. Mazkur hujjatlarda yosh avlodni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosati darajasida belgilandi.

Bu davrda profilaktika, asosan, **axloqiy-tarbiyaviy mazmunda** bo'lib, huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy va psixologik omillarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan ilmiy mexanizmlar yetarli darajada shakllanmagan.

Keyinchalik, 2000-yillar boshlaridan talabalar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi yoshlar siyosati bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqila boshlandi. Oliy ta'lim

muassasalarida dekanatlar huzurida tarbiyaviy ishlar bo'limlari, kuratorlik (murabbiylik) instituti joriy etildi.

Keyingi yillarda profilaktika tizimi rivojlanib, statistik ko'rsatkichlarda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Masalan, 1996–1997-yillarda yoshlar jinoyatchiligi 1,7% ga (3243 dan 3189 taga) kamaydi, 2002-yilda esa yoshlar o'rtasida qotillik holatlari 23,5% ga qisqardi, ammo ayrim hududlarda (masalan, Samarqand viloyatida) o'sish saqlanib qoldi [26; 49-50-b.].

Natijalar. 2014-yil 14-mayda O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganligi huquqbuzarliklar profilaktikasida fuqarolik jamiyatining ishtirokini kuchaytirdi. Jumladan, 2015-yilda huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari tomonidan voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish maqsadida o'tkazilgan 7 760 ta huquqiy targ'ibot tadbirlari (shundan 923 tasi OAVda) natijasida voyaga yetmaganlar va yoshlar jinoyatchiligi sezilarli kamaydi [22; 79-80-b.]. Mazkur tadbirlarda Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari, mahalla organlari va ta'lim muassasalarining hamkorligi ta'minlandi, bu esa tizimning samaradorligini yanada oshirdi.

2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi yangi bosqichga ko'tarildi, innovatsion va xalqaro standartlarga moslashtirildi. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish borasida an'anaviy kuratorlik (murabbiylik) instituti o'z samarasini yo'qotganligi sababli, uning o'rniga xorijiy tajribaga asoslangan **tyutorlik instituti** joriy etildi [27; 3-b.]. Bu islohot talabalar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi mexanizmini kuchaytirish va talaba-yoshlar bilan individual ishlashni yaxshilashga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

Zero, Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq" [28] – degan so'zlari huquqiy targ'ibot, tushuntirish va ta'lim-tarbiya ishlari orqali talaba-yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish eng samarali va muqobil usul ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning birinchi yarmida jinoyatlarning 95,3 foizi ochilib, yoshlar o'rtasida 7849 ta jinoyat sodir etilganligi aniqlan. Ushbu vaziyatni hisobga olib, Oliy Majlis Senati tomonidan Ichki ishlar vazirligiga oliy o'quv yurtlari talabalari va voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklari bilan hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash vazifasi yuklatildi [29].

Mazkur vazifaning ijrosi o'laroq, Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim jarayoniga oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish hamda oliy ta'lim tizimidagi korrupsion holatlarga chek qo'yish maqsadida "Raqamli universitet" loyihasi doirasida **"Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi"** (HEMIS — Higher Education Management Information Systems) ishlab chiqildi [30; 6-b.]. 2023-yildan boshlab esa, oliy ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan kelib tushgan mablag'lar

hisobidan shartnoma asosida profilaktika (katta) inspektori va talaba qizlar uchun xotin-qizlar masalalari bo'yicha (katta) inspektorlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunga kelib, Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasining rivoji xalqaro hamkorlik bilan chambarchas bog'liq ekanligi chuqur anglab yetildi. Shu asnoda, 2025-yil 3-dekabrda O'zbekiston Markaziy Osiyoda ilk bo'lib UNODC'ning CHAMPS (Children Amplified Prevention Services) tashabbusiga qo'shildi, bu voyaga yetmaganlar va yoshlar, shu jumladan, talabalar o'rtasida giyohvandlikning oldini olishga qaratilgan. 2025-yilda jinoyatchilikka qarshi kurashni raqamlashtirish, huquqiy targ'ibot platformalari va "Yoshlar jinoyatchilikka qarshi" dasturlari joriy etildi [31].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda:

- barcha oliy ta'lim muassasalari va ularning yotoqxona (TTJ)larida "Xavfsiz oliy ta'lim muassasasi" tamoyili asosida **Face-ID** asosida ishlaydigan **kirish-chiqish punktlarini joriy etish** hamda talabalarining oliy ta'lim muassasalari va talabalar turar joylariga kirish-chiqishlari to'g'risida Face-ID tizimi tomonidan uzatiladigan bildirishnomalarni *otanolalarining mobil telefoni (telefon raqami)ga SMS-xabarnoma* tarzida ma'lumot yuborib turish tizimini yo'lga qo'yish;

- oliy ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-dekabrda "Jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi hukumat qarorlarini tizimlashtirish to'g'risida"gi VMQ-754-son Qaroriga [34] 2-Ilova "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablaridan kelib chiqqan holda, **"Xavfsiz oliy ta'lim muassasasi" tamoyili** asosida huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan talabalarga nisbatan huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordamlar ko'rsatishdan iborat **ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish** mexanizmini yo'lga qo'yish (*bunda, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar etib OTM rektori (direktori yoki boshlig'i), yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, OTM profilaktika inspektori (yoki xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor), moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi, fakultet dekani va tyutorlar belgilanadi*);

- oliy ta'lim muassasalarida talabalar yoki OTM professor-o'qituvchilari yoxud xodimlari tomonidan sodir etilganligi (yoki kelgusida sodir etilishi mumkinligi to'g'risida asosli ma'lumot mavjudligi)dan qat'iy nazar, har qanday *huquqbuzarlik to'g'risida anonim tarzda xabar qilish* maqsadida, faqatgina OTM joylashgan tuman (shahar) IIB (IIO FMB) boshlig'ining birinchi o'rinbosari tomonidan ochiladigan **"Huquqbuzarlik (jinoyat) to'g'risida xabar qutisi"** (*videokuzatuv kamerasi mavjud bo'lmagan hududga o'rnatiladi*) va **"STOP OFFENSE" telegram botini** ishga tushirish hamda xabar qiluvchilarning shaxsini sir tutgan holda (nooshkora) rag'batlantirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish taklif etiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi uzoq tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tgan bo'lib, uning har bir bosqichi muayyan ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar ta'sirida shakllangan. Tadqiqot jarayonida, ilk davrlardagi jazoga asoslangan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish tizimi zamonaviy jamiyat talablariga javob bermasligi ayon bo'ldi.

Shuningdek, o'tgan uzoq tarixiy davrda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi axloqiy-diniy, ma'muriy-intizomiy va mafkuraviy modellar

asosida amalga oshirilgan bo'lib, ularning birortasi talabalar huquqlarini to'laqonli ta'minlagan holda, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishga qaratilgan kompleks huquqiy mexanizm sifatida shakllanmagan.

Mazkur tadqiqotimiz Yangi O'zbekistonda ushbu sohani tubdan qayta ko'rib chiqish va zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida takomillashtirishga mustahkam ilmiy-tarixiy zamin yaratib, kelgusidagi tadqiqotlar va amaliy chora-tadbirlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. N.S.Atayeva, F.Rasulova, M.Salayeva, S.Hasanov. Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. I kitob. – T.: "Fan va texnologiya", 2012, 84-bet.
2. Jany, Janos. Cruelty against Leniency: The Case of Imperial Zoroastrian Criminal Law. *Religions* 2023, 14, 210. <https://doi.org/10.3390/rel14020210>
3. Kiel, Yishai. Apostasy and Repentance in Early Medieval Zoroastrianism: Journal of the American Oriental Society. *Religions* 2017, 137.2, p 230.
4. Арасту. Ахлоқи кабир. Таржимонлар Зоҳир Аълам ва Урфон Отажон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2024 йил.–5-б.
5. <https://www.ebsco.com/research-starters/education/education-ancient-greece>
6. <https://thonyc.wordpress.com/2023/07/22/a-university-or-not-a-university-that-is-the-question/>
7. <https://www.trtworld.com/article/12739996>
8. https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_oldest_universities_in_continuous_operation
9. <https://www.ilmgate.org/wp-content/uploads/2011/02/Madrasa-and-University-in-the-Middle-Ages.pdf>
10. <https://academic.oup.com/book/4186/chapter-abstract/145996959>
11. Nambissan, Geetha B., and S. Srinivasa Rao (eds), '10 Controlling Minds, Disciplining Bodies: Life Inside a Madrasa', in Geetha B. Nambissan, and Srinivasa Rao (eds), *Sociology of Education in India: Changing Contours and Emerging Concerns* (Delhi, 2012; online edn, Oxford Academic, 24 Jan. 2013), <https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780198082866.003.0011>
12. Mukhiddinova M, Sapayev V, Yakubova M, Maytakubov M, Agzamova D, Haydarova P, et al. ULUGH BEG MADRASAH AS A PILLAR OF ASTRONOMICAL ADVANCEMENT IN CENTRAL ASIA. *Archives for Technical Sciences*. 2025 Mar 28;1(32):156–164. <https://doi.org/10.70102/afts.2025.1732.156>
13. Makdisi, George. "Madrasa and University in the Middle Ages", *Studia Islamica*, No. 32 (1970), pp. 256-264 <http://www.jstor.org/stable/1595223?origin=JSTOR-pdf>
14. Paul L. Gaston (2012). *The Challenge of Bologna: What United States Higher Education Has to Learn from Europe, and Why It Matters That We Learn It*. Stylus Publishing, LLC. p. 18. https://books.google.co.uz/books?id=wyyinHZ1IllgC&pg=PA18&redir_esc=y
15. <https://www.medievalists.net/2011/11/medieval-student-violence/>
16. Beam, S. (2020) "Violence and Justice in Europe: Punishment, Torture and Execution", in R. Antony, S. Carroll, and C.D. Pennock (eds.) *The Cambridge World History of Violence*. Cambridge: Cambridge University Press (*The Cambridge World History of Violence*), pp. 389–407.
17. Schwinges, R.C. (2008). "Student Education, Student Life". In *Studenten und Gelehrte*. Leiden, The Netherlands: Brill. <https://doi.org/10.1163/ej.9789004164253.i-663.79>
18. Frank, A. J. (2016). Muslim Cultural Decline in Imperial Russia: A Manufactured Crisis. *Journal of the Economic and Social History of the Orient*, 59(1/2), 166–192. <http://www.jstor.org/stable/43919271>

19. Majidov T., Ghosh D., Ruziev K. Keeping up with Revolutions: Evolution of Higher Education in Uzbekistan. Stirling Economics Discussion Paper №03, 2009. <https://files01.core.ac.uk/download/9049810.pdf>
20. Zajda, J. (1980). Education and Social Stratification in the Soviet Union. *Comparative Education*, 16(1), pp. 3–11. <http://www.jstor.org/stable/309854>
21. Applebaum A. Gulag: A History. New York: Doubleday, 2003. pp. 302-303. — URL: <https://www.penguinrandomhouse.com/books/1757/gulag-by-anne-applebaum>
22. Safarov N. (2025) Prevention and fight against crime in Uzbekistan. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, Vol. 3. 6, pp. 79. <http://www.jstor.org/stable/309854>
23. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrdagi O'RQ-429-son "O'zбекистон Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonuni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.1992 y., 2-son. <https://lex.uz/ru/docs/140894>
24. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi O'RQ-464-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.12.1997 y., 9-son. <https://lex.uz/docs/16188>
25. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.03.1998 y., 11-12-son. <https://lex.uz/docs/48401>
26. Turdiboeva G. *Measures to prevent crime among youth in Uzbekistan* // Gospodarka i Innowacje (Economy and Innovation). – 2022. – Vol. 26. – P. 49–50. – ISSN 2545-0573. – URL: https://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view/32/article/download/811/761/814
27. Ўзбекистонда олий таълим: 100 саволга 100 жавоб [Матн]: методик қўлланма /А. Эшмуродов, М. Мамарасулов. – Тошкент: "Sano-Standart", 2023. – 3-б.
28. Мирзиёев Ш.М. *Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир*. // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Ўқитувчи ва мураббийлар кун"га бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // Халқ сўзи. — 2020 йил 1 октябрь, № 207 (7709). <https://xs.uz/uzkr/site/newspaper?page=137>
29. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 30 июлдаги "Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва уларнинг профилактикаси ҳолати тўғрисидаги ахбороти ҳақида" СҚ-346-IV-сон қарори.// <https://lex.uz/uz/docs/5580179>
30. Олий таълим ислохотлари: сон ва сифат кўрсаткичлари [Матн]: методик қўлланма /А. Эшмуродов, М. Мамарасулов. – Тошкент: "Sano-Standart", 2023. – 6-б.
31. <https://www.unodc.org/unodc/prevention/news-and-stories/2025/December/uzbekistan-launches-the-champs-initiative-to-strengthen-early-prevention-for-children-and-adolescents.html>
32. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 1 декабрдаги "Жамоат тартибини сақлаш, жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасидаги ҳукумат қарорларини тизимлаштириш тўғрисида"ги ВМҚ-754-сон Қарори. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 02.12.2025й., 09/25/754/1119-сон. <https://lex.uz/docs/7872510#7873326>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).